

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali 3F-21YOKI
guruh talabasi
SulxonovD.A
sulxonovdiyorbek2@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Respublikamizda yer osti usulida qazib olinayotgan foydali qazilmalarning asosiy qismi kichik qalinlikdagi konlar ekanligi, Bugungi kunda ruda shaxtalarida foydali qazilmani qazib olish bo'yicha harajatlarining asosiy qismi haqida, qazib olinayotgan loyiha chegarasida rudani to'liqroq ajratish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qazib olish, ruda, zaxira, xomashyo, rivojlanish, boyitish, ishlab chiqarish, shaxta, foydali qazilmalar.*

Аннотация: *В данной статье говорится о том, что основная часть полезных ископаемых, добываемых подземным способом в нашей республике, представляет собой маломощные месторождения, основная часть затрат на добычу полезных ископаемых в рудниках сегодня, более полное разделение руды в пределах заминированный проект.*

Ключевые слова: *добыча, руда, запасы, сырье, разработка, обогащение, добыча, рудник, полезные ископаемые.*

Annotation: *This article talks about the fact that the main part of the minerals mined underground in our republic is small-thickness deposits, the main part of the costs of mineral extraction in ore mines today, more complete separation of ore within the limits of the mined project.*

Key words: *extraction, ore, reserve, raw material, development, enrichment, production, mine, minerals.*

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari aholi sonining oshib borishi tabiiy resurslarga bo'lgan talabning ham oshishiga olib kelmoqda. Bu talabni qondirish uchun yiliga yer qa'ridan bir necha yuz milliard tonnalab xomashyo zaxiralari qazib olinmoqda. Respublikamiz hozirgi vaqtda konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olsa ham uning zaminida hali sanoat ishlab chiqarishiga jalb etilmagan juda katta va qimmatbaho mineral xomashyo zaxiralari mavjud. Bu bo'yliklar xalqimizning hayotini moddiy va ma'naviy tomondan boyitishda, uning hayotini tobora yaxshilashda kata ahamiyatga ega. Bu konlarni qazib olishda, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish muhim ahaxniyat kasb etadi. Respublikamizda yer osti usulida qazib olinayotgan foydali qazilmalarning asosiy qismi kichik qalinlikdagi konlardir. Kichik qalinlikdagi metal rudalarini qazib olishda kon-geologik sharoitlarning yomonlashishi oqibatida oxirgi paytlarda ko'pgina qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu holat ko'pgina konlarda qulay kon-geologik sharoitga ega bo'lgan hududlar yoki alohida ruda tanalarini intensiv qazib olish natijasida murakkab kon-geologik sharoitlarga ega hududlarni ham keng miqyosda qazib olishga jalb etilayotganligi natijasida yuzaga kelmoqda.

Qazib olish o`zi qanday amalga oshiriladi? – bu qazib olish kov joyida rudani qazib olish bilan o`zaro bog`liq bo`lgan ish jarayonlari majmui. Foydali qazilmani massivdan ajratib olish maqsadida qazib olish lahimlarida va kameralarda amalga oshiriladigan ish jarayonlari majmui qazib olish ishlari deb ataladi. Qazib olish lahimlari – bu foydali qazilma ichidan o`tiladigan va qazib olish ishlari bajariladigan kon lahimlardir. Bu kon lahimlarida kov joy siljishi doimiy yoki davriy ravishda davom etadi. Ularning ko`ndalang kesimining shakli va uzunligi qazib olinayotgan ruda tanasining yotish burchagi va qalinligiga, tog` bosimiga hamda foydala qazilmani qazib olish texnologiyasiga bog`liq. Qazib olish ishlari ishlab chiqarish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich malum ketma–ketlikda bajariladigan va bir–biri bilan bevosita bog`liq ish jarayonlar majmuidan tashkil topgan.

Bugungi kunda ruda shaxtalarida foydali qazilmani qazib olish bo`yicha harajatlarning asosiy qismi (25–50%) qazish ishlari ishlab chiqarish bosqichiga sarflanadi. Rudani ajratib olish ko`rsatkichlari ko`p holatlarda to`liq yoki qariyb to`liq qazib olishga bog`liq bo`ladi. Agarda qazib olishdagi barcha harajatlarini 100% deb olsak, u holda ish jarayonlari bo`yicha har biri quyidagi ulishni egallaydi:

- kon lahimlarini o`tish 1–30 %;
- rudani massivdan ajratish 20–80%, mos holda kichik miqdori yumshoq rudalarni qazib olishga taaluqli bo`lsa, katta miqdori esa mustahkam rudalarga tegishli;
- rudalarni yetkazish 10–60%, buning tarkibida ikkilamchi maydalash 0–25% ni tashkil etadi;
- qazish ishlaridan hosil bo`lgan bo`shliqni saqlab turish 0–30%, agarda to`ldiruvchi matreallar yordamida saqlab turilsa 50% gacha, ayrim holatlarda undan ko`proq bo`lishi mumkin.

Yuqorida sanab o`tilgan har bir jarayon, boshqa jarayon ko`rsatkichiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi. Misol uchun rudani massivdan ajratishni arzonlashtirish rudani birlamchi maydalashni yomonlashtirishi mumkin, bu esa rudani ikkilamchi maydalash ishlari hajmining ko`payishiga va rudani yetkazish unumdorligining pasayishiga olib keladi. Pishiqligi balandroq to`ldiruvchi matreallarni qo`llash bilan qazib olishdan hosil bo`lgan bo`shliqni saqlab turish harajatlarning ko`payishiga olib keladi lekin o`zi yurar jihozlarning ishlash imkoniyatini yaratadi, bu esa rudani massivdan ajratish va yetkazish harajatlari kamayishiga olib keladi. Shuning uchun qazib olish ishlarining texnologik sxemasini kompleks ravishda yaxshilash talab etiladi.

Rudani massivdan ajratish deb rudaning ayrim qisimlarini massivdan ajratib, ma`lum o`lchamgacha maydalashga aytiladi. Rudani massivdan ajratishga qo`yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ishning havfsizligi;
- mehnat va material harajatlari eng kam miqdorda bo`lishi;
- massivdan ruda sifatli ajratishi. Bu qazib olinayotgan loyiha chegarasida rudani to`liqroq ajratish, portlashdan keyin ruda chegarasidan tashqaridagi puch tog` jinslar massivining buzulishiga yo`l qo`ymaslik (yoki eng kam miqdordagi buzulishlar) bilan ajratilgan rudani sifatsizlanishdan saqlash, rudaning yaxshi maydalanishi ya`ni katta bo`laklarning yo`qligi yoki kamligi, odatda ruda mayda bo`laklarning (o`rtacha o`lchami–

5mm) kam chiqishi ham maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda rudaning mayda bo'laklarining ko'pligi uning zichlanishiga olib kelishi mumkin. Rudani massivda ajratish usullari juda xilma-xil, har qaysi usul o'zining qo'llanish doirasiga ega va bu rudalarning mustahkamligi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Курбанбаев Д. М. и др. ВИДЫ, СВОЙСТВА И ОТРАСЛИ ПРИМЕНЕНИЕ ИЗВЕСТНЯКОВ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 11. – С. 28-32.
2. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. QAZILGAN BO'SHLIQNI TO'LDIRIB QAZISH TIZIMI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 1342-1344.
3. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. QAZISH TIZIMINI TANLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 204-206.
4. Nodirova S. M., Erkaboyeva S. I. SHAHTA ATMOSFERASINI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 10. – С. 86-90.
5. Erkaboyeva S. I., Nishanov A. I. YER OSTI KON ISHLARIDA QO'LLANILADIGAN QAZIB Olish TIZIMLARIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH TADBIRLARI //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 10. – С. 102-106.
6. Гайбназаров Б. А., Алимов Ш. М., Эркабоева С. АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЙ ФОРМИРОВАНИЯ СКВАЖИННЫХ ЗАРЯДОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ НЕВОДОУСТОЙЧИВЫХ ВВ ПРИ ДРОБЛЕНИИ ГОРНЫХ ПОРОД В ОБВОДНЕННЫХ УСЛОВИЯХ НА КАРЬЕРАХ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 168-179.
7. Нодирова Ш. М., Эркабаева С. И., Муталова М. А. РАЗРАБОТКА И ИЗУЧЕНИЕ РАЗДЕЛЕНИЯ СВИНЦОВО-МЕДНОГО КОНЦЕНТРАТА С ПРИМЕНЕНИЕМ СУЛЬФИТА НАТРИЯ В КАЧЕСТВЕ ДЕПРЕССОРА ДЛЯ МИНЕРАЛОВ СВИНЦА //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 11. – С. 58-62.
8. Erkaboyeva S. I., Sulxonov D. A., Ulashov D. Z. CHUQUR KARYERLARDA RESURSLARNI TEJAYDIGAN VA EKOLOGIK TOZA TRANSPORT TIZIMI //IMRAS. – 2023. – Т. 6. – №. 8. – С. 153-157.
9. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A., Ramanov X. S. BIR YARUSLI AG'DARMALARNI XOSIL QILISH NAZARIYASI VA AMALIYOTINI O'RGANISH //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 49-51.
10. Erkaboyeva S. I., Malikov M. A. CHUQUR KARYER BORTLARINING QIYALIGIDA ICHKI AG_DARMALARNI XAVFSIZ SHAKLLANTIRISH SHARTLARINI TADQIQ QILISH //IMRAS. – 2024. – Т. 7. – №. 1. – С. 174-179.
11. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. MURUNTOV KARYERINING ISHSIZ BORTLARIDA ICHKI AG_DARMALARNING PARAMETRLARINI ILMIY ASOSLASH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 211-215.

12. Erkaboyeva S. I., Yunusov A., Samadova G. M. AG _DARMALAR XOSIL QILISHNING MUXANDIS-GEOLOGIK TAXLILI //IMRAS. – 2024. – Т. 7. – №. 1. – С. 792-797.